

HAZRATI IMOM MAJMUASI VA UNING TARIXI.

*Magistr: Tojiyeva Orzugul Ziyatillayevna**TAQU**+998917738020 orzugultojiyeva0@gmail.com**Nurmuxamedova Nozimaxon Alijon qizi**TAQU 2-kurs talabasi**+998999815809 nozimanurmammedova4@gmail.com***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:01.02.2026**Revised: 02.02.2026**Accepted:03.02.2026***KALIT SO'ZLAR:***arxitektura, maqbara,
qabir, gumbaz, majmua,
tarix*

Hazrati Imom majmuasi (Hastimom) – Toshkent shahrining Olmazor tumanida joylashgan va XVI-XX asrlarga oid me'moriy yodgorlik. Majmua o'z ichiga Mo'yi Muborak madrasasi, Qaffol Shoshiy maqbarasi, Baroqxon madrasasi, Hazrati Imom jome masjidi, Tillashayx masjidi va Imom al-Buxoriy Islom institutini qamrab olgan. Ansamnil Toshkentning Hazrati Imom qabri yonida barpo etilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, hazrati Imom qulf va kalit yasashda ham usta bo'lgan, shuning uchun "Qulf sozlovchi" degan ma'noni ham anglatuvchi "Qaffol" laqabini olgan, shuningdek, u Eski Ahdni (Tavrot) arab tiliga tarjima qilgan. Hazrati Imom 72 ta tilni bilgani rivoyat qilinadi. Hozirgi kunda Hazrati Imom majmuasi Toshkent shahrining "Eski shahar" qismida joylashgan bo'lib, 1966-yildagi kuchli zilziladan omon qolgan. 2007-yil boshida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov farmoni bilan Hazrati Imom jamoatchilik jamg'armasi tashkil etilib, Hazrati Imom majmuasining tarixiy qiyofasini qayta

tiklash maqsadida qurilish, ta'mirlash va obodonchilik ishlari olib borilgan.

Kirish: Hazrati Imom majmuasi imom Abu Bakr Muhammad ibn Ali Ismoil ash-Qaffol Shoshiy qabri atrofida bunyod etilgan. Qabr va uning atrofida vujudga kelgan me'moriy yodgorlik majmuasi Hazrati imom nomi bilan ataladi. Dastlab, Baroqxon madrasasi keyinroq Qaffol Shoshiy maqbarasi va 1579-yilda Abdullaxon II mablag'lari hisobiga qo'sh uslubida Shayx Bobohoji maqbarasi qurilgan (hozirda saqlanib qolmagan). XIX asr o'rtalarida Hazrati Imom majmuasida Toshkent namozgohi (Tillashayx masjidi), Mo'yi Muborak madrasasi, Jome masjidi (hozirda saqlanib qolinmagan) bunyod etilgan. XX asr boshlarida Tillashayx masjidi qayta ta'mirlanib, yangi ko'rinishga keltirilgan. Majmua hududiga Eshon Boboxon ham dafn etilgan. Hazrati Imom majmuasida O'zbekiston Musulmonlar idorasi joylashgan.

Asosiy qism: Hazrati Imom majmuasining ko'rinishi qadimiy an'analar asosida yaratilgan bo'lib, majmua ikki gumbaz va ikki minoradan iborat. O'ng minora xorazmlik Ibrohim va Erkin ustalar, chap minora samarqandlik Sharif usta hunarmandlar jamoasi tomonidan bunyod etilgan. Minoralar uzunligi 53 metrni tashkil etadi. Masjidning kirish qismida sandal daraxtidan ishlangan 20 ta ganch tushirilgan ustunli ayvon joylashgan. Gumbaz darchalarining alohida loyihalashtirilishi va quyosh nurlarining tongdan ufqqa qadar masjidni yoritib turishiga imkon yaratgan. Ikki gumbazning ichki qismi tilla suvi bilan yurgizilgan. XVI asrda majmua tarkibida sayrgoh bog', ayvonlar barpo etilgan va hovuz atrofi ko'kalamzorlashtirilgan, xalq sayillari o'tkazilgan.



Hazrati Imom majmuasidagi yozuvlarni Shayx Abdulaziz Mansur tahriri ostida Habibulloh Solih, Islombek Muhammad va Abdulgʻofur Xaqberdi kabi xattotlar bitganlar. Peshtoqlar ostida oʻng va chap tomondan masjid qanotlariga, oʻrtadan esa jome hovlisiga kiradigan oʻymakor yogʻoch darvozalar oʻrnatilgan.

Masjid va ayvoni birga qoʻshib hisoblansa, besh mingdan ortiq kishini sigʻdira oladi. Xonaqohning uzunligi 77 metr, eni esa 22 metr, mehrobi bilan qoʻshib hisoblansa 24 metrga yetadi. Qanotlari boʻyiga 35, eniga 25 metrni tashkil etadi. Tarixi jadidayi Toshkand asarida Muhammad Solih Hazrati imom majmuasini pishiq gʻishtdan qurilganligini taʼkidlab oʻtadi.

2025 йил



1. Abubakir Qaffol shoshiy maqbarasi
2. Nomozgoh masjidi
3. Baroqxon madrasasi
4. Tillashayx masjidi
5. Muyimuborak madrasasi
6. Hazrati Imom masjidi
7. Oʻzbekiston musulmonlari idorasi
8. Istiqlol mahalla markazi
9. Islom instituti
10. Islom Sivilizatsiya Markazi.

- Baroqxon Madrasasi: 1531-1532 yillarda qurilgan bo'lib, Ulug'bekning nabirasi Navro'z Ahmadxon tomonidan barpo etilgan. Madrasa ichida ikkita maqbara joylashgan: Suyunchxo'jaxon maqbarasi va Nomsiz maqbara.
- Tilla Shayx Masjidi: XIX asrda qurilgan bo'lib, masjid ikki qismdan – mehroblardan iborat.
- Muiy Muborak Madrasasi: XVI asrda qurilgan bo'lib, Muhammad payg'ambarning sochlari madrasada saqlanadi, shuning uchun u o'z nomini oldi. Madrasada O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasi joylashgan.



• Hazrati Imom Maqbarasi: XVI asrda Imom hazratlari (Abu Bakr ibn Ismoil al-Kaffol ash-Shoshiy) sharafiga qurilgan. Maqbara yoki maqbara pishiq koshinli g'ishtdan qurilgan bo'lib, mayolika bilan bezatilgan, to'rtburchak shaklga ega bo'lib, tepasida katta ko'k gumbazli.

Hazrati Imom majmuasida binolardan tashqari, sharq qo'lyozmalari kutubxonasi va xalifa Usmon Qur'oni mavjud. Qur'onda 353 ta pergament varaqlari mavjud. Dastlab Qur'on Madinada, keyin Damashq va Bag'dodda saqlangan.

Qur'onni Bag'doddan Samarqandga XIV asrda Amir Temur olib kelgan. 1869-yilda Usmon Qur'oni Sank-Peterburgga olib ketilgan va u yerda uning haqiqiyliigi isbotlangan. Keyinchalik u yerdan Qur'on Ufaga ko'chirilgan, shundan so'ng Usmon Qur'oni Toshkentga olib kelingan va hozirgi kunga kelib Hazrati Imom majmuasida saqlanadi. Toshkentda saqlanayotgan „Usmon Qur'oni“ Qur'onning bizgacha yetib kelgan yagona asl

qo'lyozmasi hisoblanadi. Buni 2000-yil 28-avgustda YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan berilgan sertifikat tasdiqlaydi.

Hozirda Hasti Imom majmuasining katta maydonida O'zbekiston Islom Sivilizatsiya Markazi qad ko'targan. Bu majmua arxitekturasi juda o'zgacha namoyom etilgan. Hozirdan turli davlat fuqarolari bu yerga sayohat qilishni boshlab yuborganlar. Zamonaviy va qadimiy arxitekturani mujassamlashtirgan bu markaz Toshkent shahridagi end katta majmuaga aylandi.

Xulosa: Hazrati Imom majmuasi o'z ichiga bir nechta qadimiy masjid va maqbaralarni o'z ichiga oladi. Bu yerga juda ko'plab sayyohlar majmuaning go'zalligi va noyobligi ko'rish uchun tashrif buyuradi. Eski shahar hududida joylashgani tufayli majmua atrofida qadimiy fuqarolar uylari saqlab qolingani va bu majmuaning asl atmosferasini namoyon etib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. http://mg.uz/publish/doc/text40669_kompleks_hazrati_imam
2. Usmonxon Alimov. Hazrati Imom. Toshkent: Movarounnahr, 2008.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Toshkent, 2000-2005 A.Urinboyev, O.Buriyev. Toshkent Muhammad Solih tavsifida.
4. Toshkent: O'zbekiston SSR Fan Nashriyoti.
5. A.U. Sultonov. Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi jadidayi Toshkand" asari. Toshkent: O'zbekiston, ISBN 978-9943-01-077-2.
6. https://commons.wikimedia.org/wiki/Category:Ensemble_Hazrat_Imam